



MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASIDAGI MANGUBERDI OBRAZI

Xayriyev Xayriddin Sirojiddin o‘g‘li
Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi
xayriddinxayriyev08@gmail.com.
+998932790455

Annotatsiya: Maqsud Shayxzoda ko‘plab she’rlar muallifi bo‘lishi bilan bir qatorda hammamizga ma’lum va mashhur bo‘lgan “Jaloliddin Manguberdi” dramasining ham muallifi hisoblanadi. Biz bilamizki, Jaloliddin Manguberdi yur himoyasida o‘z jonini tikkan Xorazmshoh hisoblanib, tarix jahbalariga muhrlanib qolgan. Shuning uchun ham bugungi kungacha har bir avlod o‘rtasida uning jasorati, jur’ati, yurt sevarligi bilan ajralib turardi va cheksiz muhabbatga ega. Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasidagi Manguberdi obrazi qisqacha tortilib beriladi.

THE CHARACTER OF MANGUBERDI IN THE DRAMA "JALALIDDIN MANGUBERDI" BY MAKSUD SHAIKZODA

Abstract

In addition to being the author of many poems, Maqsud Sheikhzada is also the author of the well-known and famous drama “Jalaluddin Manguberdi”. We know that Jalaluddin Manguberdi is considered Khorezmshah, who sacrificed his life for the defense of his country, and has been recorded in the pages of history. That is why until today he was distinguished by his bravery, courage, patriotism among every generation and has unlimited love. In this article, the character of Manguberdi in the drama “Jalaluddin Manguberdi” by Maqsud Sheikhzoda is briefly described.

ХАРАКТЕР МАНГУБЕРДИ В ДРАМЕ «ДЖАЛАЛИДДИН МАНГУБЕРДИ» МАКСУДА ШАЙКЗОДЫ

Абстрактный

Помимо того, что Максуд Шайхзаде является автором многих стихов, он также является автором известной и знаменитой драмы «Джалалуддин Мангуберди». Мы знаем, что Джалауддин Мангуберди считается хорезмшахом, отдавшим свою жизнь ради защиты своей страны, и записан на страницах истории. Именно поэтому до сегодняшнего дня он отличался



храбростью, мужеством, патриотизмом среди каждого поколения и пользовался безграничной любовью. В данной статье кратко описан персонаж Мангуберди в драме Максуда Шейхзоды «Джалалуддин Мангуберди».

Kalit so‘zlar: jasorat, drama, sodiqlik, sarkarda, millat, Xorazmshoh, faxr tuyg‘usi, g‘alaba, vatan, jang, tinchlik.

Keywords: courage, drama, loyalty, general, nation, Khorezmshah, pride, victory, homeland, war, peace.

Ключевые слова: мужество, драма, верность, генерал, нация, хорезмшах, гордость, победа, Родина, война, мир.

Kirish:

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasidagi Manguberdi obrazi haqida gap borarkan, avvalo biz drama nima ekanligi haqida bilib olishimiz kerak. Undan so‘ng esa Jaloliddin Manguberdining ta’riflarini aytib o‘tamiz. Dramaga keladigan bo‘lsak, ushbu so‘z qadimgi yonon tilidan kelib chiqqan bo‘lib “drama” “harakat” degan ma’nolarni anglatadi. Drama badiiy adabiyotning uch turi: epos , lirika bilan bir qatorda uchinchi asosiy tur sifatida qaraladi. Drama teatr sohasi bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Dramaning o‘ziga xos xususiyatlari harakatlarning ziddiyatlarga asoslanishi, hamda ularning epizodlarga va sahnalarga bo‘linishi, bayonning yo‘qligi, personajlar munosabatlarining o‘zaro so‘zlashuvga asoslanishi , qolaversa, syujetlilik hisoblanadi. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qaxramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi imkoniyatlariga ham to‘gri kelib, imo ishora, harakatlar orqali ko‘rishga, shuningdek, eshitishga mo‘ljallangan.

Asosiy qism:

Biz asardagi Jaloliddin Manguberdi obrazini tasvirlashdan oldin uning kim bo‘lgani, nega xalq orasida nomi tanilgani va mashhurlikka erishganini bilishimiz kerak. To‘liq ismi – Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad bo‘lib, 1198 yilda Xorazmda tug‘ilgan. 1220 yildan to umrining oxiriga qadar 11 yil davomida Xorazmga hukmdorlik qilgan so‘nggi Xorazmshoh hisoblanadi. Asli kelib chiqishi turkmanlarning begdili urug‘i bilan bog‘liq bo‘lib otasi Muhammad Xorazmshohning to‘ng‘ich farzandidir. Jaloliddin 33 yil umr ko‘rishiga qaramasdan, shu oz miqdordagi umrining 11 yili jangu jadallar, to‘z to‘polonlar ichida o‘tgan. Onasining ismi oychechak bo‘lgan. Uni Manguberdi deb atashlarining ham o‘ziga yarasha sabablari bo‘lib , uni burnidan xoli bo‘laganligi sababli ham Makburni deb



atashgan. Davrlar o‘tishi bilan bir qatorda bu nomning talaffuzda o‘zgarishi sababli ham keyinchalik Manguberdi deya mashhur bo‘lib ketgan. Sulton Jaloliddinning shaxsiy kotibi Shihob addin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy uni shunday ta’riflaydi: „U qora tanli, bo‘yi past, nutqi va ifodasi turkiy edi, lekin forscha ham gapirardi. Uning jasoratiga kelsak, men aytib o‘tgan janglar bu haqda gapirishga kifoya qiladi. U sherlar orasida sher, jasur otliqlari orasida eng jasur edi. Yumshoq edi, jahli chiqmasdi, so‘kmasdi“ Movaraunnahrda katta jasorat ko’rsatgan Jaloliddin haqida Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, sovet tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning na nomi, na jangovar jasorati iliq so‘zlar bilan tilga olingan edi. Shunga qaramay, Shayxzoda bu ajoyib siymo haqidagi Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” va Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoyi Juvayniy” kabi asarlarini o’qib, shu asarlarda tasvirlangan tarixiy davr voqealari asosida o‘z asarini yozishga ahd qildi. “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasining asosiy bosh g‘oyasi xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan mardonavor kurashi, haqida so‘z borib shuningdek, drama Vatan mustaqilligi, ajdodlar qahramonliklari, inson erki kabi ma’naviy sifatlarni yoshlarga singdirishda qimmatli badiiy yaratiq ekanligi ham hisoblanadi.

Xulosा:

Ushbu maola so‘ngida umumiy fikrga kelinadigan bo‘linsa, Jaloliddin Manguberdini boshqa bir insonlardan qolaversa Xorazmshohlar dam ajratib turuvchi xususiyatlari ko‘p edi. Chunki unda ham xuddi Maqsud Shayxzodaning boshqa bir asaridagi ya’ni “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasining bosh obrazi bo‘lmish Mirzo Ulug‘bekdagi kabi vatanga bo‘lgan muhabbat, uni yovlar qo‘lidan asrash va yurt ravnaqi uchun nima qilish kerak bo‘lsa jamiyki hammasiga tayyor bo‘lgan inson obrazi gavdalantirilgan. Mana nima yillar mobaynida bu asar hamda uning bosh qahramoni bo‘lmish Jaloliddin Manguberdi xalq orasida mashhur hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda bunyodkor shoir, T., 1972 y. 179 b.
3. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. -215 b.
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.
6. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari” G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti T., 2016.
7. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, “Nihol”, 2008.